

51-mavzu: [f] tovushi. Ff harfi

Dars maqsadi:

- [f] tovushining talaffuzi va Ff harf birikmasining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [f] undosh tovush ekanligini bilib oladilar.
- soʻzlardan [f] harf birikmasining oʻrnini aniqlashni oʻrganadilar;
- soʻzni boʻgʻinga boʻlib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;
- [f] tovushi ishtirok etgan soʻz va gaplarni oʻqishni oʻrganadilar.

Tayanch soʻzlar: favvoralar kuni, [f] tovushi

Didaktik materiallar: rasmi kartochkalar,

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : Oʻquvchilardan bugungi kun sanasi soʻraladi.

Zanjir mashqi: Oʻqituvchi bitta soʻz aytadi. Oʻquvchilardan shu soʻzni soʻnggi tovushiga soʻz aytishni soʻraydi. Mashq shu tariqa davom etadi. Notanish tovush chiqqanda mashq toʻxtatiladi.

-Bugun siz bilan "Zanjir" mashqini oʻtkazamiz. Men aytgan soʻzni oxirgi tovushiga soʻz toping keyingi soʻz topilgan soʻzning oxirgi tovushidan boshlanadi. Mashq shunday davom etadi.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

Oʻqituvchi hikoya aytib beradi.

Doʻstlar maydonchada futbol oʻynanar edilar. Birdan Farhod yeqilib tushdi. Uning tizzasi shilini ketdi. Doʻstlari uni darxol shifokorga olib bordilar. Uning shilingan joyiga malham sutrishdi. Farhod achiyapti deb yegʻlab yubordi. Shifokor uni achigan joyiga yaqinlashib bir tofushni choʻzib aytdi. Bu Farhodga yoqdi u ham chuqur nafas olib shu tovushni choʻzib aytib chiqara boshladi.

Oʻquvchilardan shu tovushni topishni soʻraydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Bolalar nima uchun shifokorga bordilar?*
- *Shifokor Farhodga qanday yordamberdi?*
- *U qanday tovushni choʻzib aytdi?*
- *Farhod qanday tovushni aytdi?*

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

2.Mavzuni tushuntirish: (10 daqiqa)

Oʻqituvchi [f] tovushini qanday hosil boʻlishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda toʻsiqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga boʻgʻin hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

Oʻqituvchi uchun eslatma:

F tovushini talaffuzida pastki lab yuqorigi tish qirralariga yaqinlashgach, o'rtasida tor bo'shliq hosil bo'ladi, shu tor bo'shliqdan havo o'tadi, bu vaqtda yuqorigi lab yengil ko'tarilgan bo'ladi, yuqoridagi tish qirralari ko'rinib turadi, pastki tish qirralariga pastki lab bilaaan bekitilgan bo'ladi, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga tiralgan bo'ladi, hamda burun yo'llarini yopib turadi, o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'i orqali o'tadi, tovush boylamlari ochiq, tovush jaranglamaydi.

Darslikdan Ff harf birikmasining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

Darslik

51-dars [f] tovushi, Ff harfi

[f] tovushi – undosh tovush. Talaffuzida pastki lab yuqori tish qirralariga yaqinlashadi. Tor bo'shliqdan o'tayotgan havo tovushni hosil qiladi.

Egri o'roq "F"ni topgach,
– Egizagim, – deb yopishdi.
Ikkalasi filni ko'rib,
– Minamiz, – deb chopishdi.

f	a	o	i	u	o'	e
fa	ta	to	ti	tu	fo'	fe

fil	fa-ol	at-rof	fo-nus	Fal-toh
film	fa-zo	of-tob	fut-bol	Fe-ru-za
sof	fo-to	fa-lak	daf-lar	Fa-ri-da
lof	fi-do	af-sus	kon-fet	Far-hod

Far-zan-dim – dil-ban-dim,
Far-zan-dim – a-sal, qan-dim.
Har o-nim fi-do bo'l-sin,
Far-zan-dim o'y-nab - kul-sin.

Berilgan so'zlarni o'qing. Ularning juftini toping.

koinot	quyosh	atrof	film	sof
kino	toza	oftob	tevarak	fazo

62

Egri o'roq "F"ni topgach,

– Egizagim, – deb yopishdi.

Ikkalasi filni ko'rib,

– Minamiz, – deb chopishdi.

- *She'rda harf haqida nima deyilgan?*
- *F harfi bilan qanday so'zlar boshlangan?*
- *F harfi nimaga o'xshatilgan?*

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

Farzand haqidagi she'r o'qitiladi.

Far-zan-dim – dil-ban-dim,

Far-zan-dim – a-sal, qan-dim.

Har o-nim fi-do bo'l-sin,


Far-zan-dim o'y-nab - kul-sin.

She'r mazmunini tushuntirilishi tavsiya qilinadi.

“Moslashtiring” topshirig'ida berilgan so'zlar o'qiladi. Ularning jufti topiladi. koinot- fazo, kino – film, quyosh-oftob, toza-sof, atrof-tevarak.

Daftar bilan ishlash: (10 daqiqa)

1. Ff harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.
2. Fonar so'zining chizmasidan [f] tovushining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.
3. Berilgan namunadan bosma Ff harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.
4. So'zlarni avval nuqtalar yordamida, so'ng mustaqil yozing.
5. Rasmda ifodalagan so'zni topib yozing. (yil fasllari, bahor, yoz, kuz, qish)



Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

-qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

52-mavzu: [f] tovushi. F f harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [f] tovushining talaffuzi va F f harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [f] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: fazogir, koinot, [f] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: rasmlari va bo'g'inli kartochkalar, kesma harflar, fazogir, koinot tasviri

Darsning borishi:

I. Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi 3 ta so'zdan iborat gap tuzishni so'raydi.

-Bugun siz bilan "gap tuzamiz" mashqini o'tkazamiz. # ta so'zdan iborat gap tuzing.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1. Amaliy topshiriq bajarish: (10 daqiqa)